



UDK: 81'373.7:81'44:81'33(045)

Habibullo BAYMANOV,
PhD, professor v.b
Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: habibullo81@list.ru, ORCID 0009-0001-9293-928

Namangan davlat chet tillari instituti professori, DSc A. Tursunov taqrizi asosida

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH COLOR COMPONENTS REPRESENTING HUMAN CHARACTER TRAITS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article presents a comparative-contrastive analysis of the formation of phraseological units with a color component representing the sema of human character in German and Uzbek. It examines the linguo-cognitive, linguo-cultural, and linguo-pragmatic features inherent in the mentalities of both nations. The study draws on phraseological units related to human character derived from folklore and classical literature, investigating their contextual and linguo-cultural aspects, as well as their role in enhancing semantic richness, expressive-emotional depth, and stylistic attractiveness within the speech process.

Keywords: phraseme, phraseology, lexicology, connotative-denotative properties, linguoculturology, linguopragmatics, linguocognitive.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ЦВЕТОВЫМ КОМПОНЕНТОМ, ОТРАЖАЮЩИХ ЧЕРТЫ ХАРАКТЕРА ЧЕЛОВЕКА В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ фразеологизмов с цветовым компонентом, выражающих сему человеческого характера в немецком и узбекском языках. В исследовании рассматриваются лингвокогнитивные, лингвокультурологические и лингвопрагматические особенности, присущие менталитету обоих народов. Анализ базируется на примерах из фольклора и художественной литературы, отражающих специфику национального характера. Особое внимание уделяется контекстуальному и лингвокультурологическому аспектам, а также роли фразеологизмов в повышении экспрессивно-эмоциональной окраски, образности и стилистической выразительности речи в коммуникативном процессе.

Ключевые слова: фразема, фразеология, лексикология, коннотативно-денотативные свойства, лингвокультурология, лингвопрагматика, лингвокогнитивистика, лингвокогнитив.

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA RANG KOMPONENTGA XOS INSON XARAKTERIGA XOS SEMALI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada nemis va o'zbek tillarida inson xarakteriga xos semani ifodalovchi rang komponentli frazeologik birliklarning qiyosiy-tipologik tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqotda har ikki xalq mentalitetiga xos bo'lgan lingvokognitiv, lingvokulturologik hamda lingvopragmatik xususiyatlar ko'rib chiqiladi. Tahlil folklor va badiiy adabiyot namunalariga asoslanib, milliy xarakter o'ziga xosligini aks ettiradi. Shuningdek, kontekstual va lingvokulturologik jihatlariga alohida e'tibor qaratilib, frazeologik birliklarning kommunikativ jarayonda nutqning ekspressiv-emotsional rangini kuchaytirish, obrazlilik va stilistik ifodaviylikni oshirishdagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: frazema, frazeologiya, leksikologiya, konnotativ-denotativ xususiyatlar, lingvokulturologiya, lingvopragmatika, lingvokognitivistika.

Kirish. Frazeologizm sohasi tilshunoslikda muhim yo'nalishlardan biri ekanligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, frazeologizm tilning o'ziga xos tarkibiy elementi bo'lib, unda xalqlarning tarixi, madaniyati, mentalitetga xos xususiyati va o'zligini anglash xususiyatlarini asoslovchi omildir. Frazeologizmlar tilning o'ziga xos xususiyatlarini, madaniy qadriyatlarini va xalqning dunyoqarashini aks ettiradi. Frazeologizm – bu nafaqat so'z birikmasi, balki bir tildagi odamlarning fikrlash tarzida, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni ifodalashda ko'zga tashlanadi. Har bir frazeologizm o'zida tilga xos tarixiy va madaniy qatlamlarni saqlaydi, bu esa uni o'rganishni qiziqarli va murakkab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazeologik birliklar so'z birikmalaridan farq qilib, majoziy ma'noni ifodalovchi turg'un birikmalar hisoblanadi. Ular nutq jarayonida

ma'noning bo'yoqdorligini, ekspressiv-emotsionallikni, so'zning jozibadorligini oshirishda hamda obrazli ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Har ikki tilning tadqiq qilinayotgan tilshunosligida frazeologizm sohasida samarali tadqiqot ishlari amalga oshirilmogda, jumladan, Sh.Rahmatullayev tomonidan adabiyotlarda til birligini frazeologizm, frazeologik birlik kabi terminlar bilan atalishi leksema, morfema terminlariga monand ravishda frazema deb atalishi ma'qullanadi hamda tilshunos olim frazemani kamida ikki leksemadan tarkib topishini ilg'or suradi[7]. Bunda olim frazema ikki va undan ortiq leksema o'zaro semantik-sintaktik, pragmatik, konnotativ-denotativ bog'lanib, umumlashma ko'chma ma'no kashf etishda o'z aksini topishini nazarda tutgan bo'lsa ajabmas.

Tadqiqot metodologiyasi. Frazeologizmlarning semantik, struktur va lingvokulturologik xususiyatlariga bag'ishlangan frazeologik birliklarning kontekstual tahlili ham tadqiqotchilar diqqatini jalb qilgan. Shuningdek, inson xarakteriga xos semali frazeologik birliklarning lingvokognitiv tadqiqi esa nisbatan yangi yo'nalish hisoblanib, alohida tadqiqot obyektini tashkil etadi. Bu yo'nalishda Umarxo'jayev M. [8], Sh.Imyaminova [4] kabi olimlarning bir muncha salmoqli ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq qiyosiy-chog'ishtirma sifatida inson xarakteriga xos semali frazeologizmlarning kontekstual va lingvokulturologik tahlili bugunga qadar tadqiqot ob'yekti sifatida to'liq o'rganilmagan. Ta'kid o'rinliki, rus tilshunosligida V.V.Vinogradov, nemis tilshunosligida V.Bulgakov, A.Gondek kabi olimlarning frazeologiya sohasiga bag'ishlab keng o'rganilgan tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. V.Vinogradov frazeologizmlarni semantik jihatdan tasniflab o'rganishda yetakchilardandir. Tilshunos olim frazeologizmlarni ularning semantik bo'linuvchanligi va komponentlarining mustaqillik darajasiga ko'ra frazeologik chatishmalar, frazeologik birliklar va frazeologik birikmalarga ajratadi [9]. Bu tasnif inson xarakteriga xos semali frazeologizmlarni yuzaga kelishida tayanch qoida hisoblanadi.

Shu kabi yondasuvda nemis olimi A.Gondek esa frazeologizmlarning kommunikativ-pragmatik, lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. Olimning ta'kidicha, frazeologizmlar nutq jarayonida muayyan kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish bilan cheklanibgina qolmay, pragmatik potentsialini ham oshirishda ahamiyatga ega ekanligini singdiradi [1]. Haqiqatdan ham inson xarakteriga xos semali frazeologizmlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ularning nutqiy qo'llanishida muhim omil hisoblandi.

Tahlil va natijalar. Masalan, nemis tilshunoslik frazeologizmidagi qora rang (schwarz) nemis tili frazeologizmlari uchun eng ommabop va mahsuldor komponent hisoblanadi. Tarkibida schwarz komponenti bo'lgan frazeologizmlarning asosiy ramziy funksiyasi ko'proq salbiy, yovuzlik va mash'umlik xarakteriga xos o'ttenkani yuzaga keltirish. Bu salbiy funksiya baxtsizlik, xavf-xatar va razillikdan tortib, pessimizm va qonunsizlikkacha bo'lgan keng ko'lamda namoyon bo'ladi. Schwarz so'zini o'z ichiga olgan qator frazeologizmlarning ma'nolarini qiyoslab, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

- yomon xarakterni ifodalovchi frazeologizmlar: eine schwarze Seele haben – "ichi qora", yovuz xarakterga ega bo'lmoq; j-m nicht das Schwarze unter dem Nagel gönnen - tirnoq ostidan kir qidirmoq.

- tuhmat yoki shubhani ifodalovchi, boshqalarga qarshi qo'llaniladigan maxfiy harakatlar bilan bog'liq iboralar: j-n anschwärzen, j-n schwarz machen – bironing ustidan mag'zava ag'darish (tuhmatchi);

- dunyoning pessimizmga yo'g'rilgan manzarasini ifodalovchi iboralar: schwarze Gedanken – mahzun, g'amgin, pessimistik fikrlar; schwarz sehen - har bir narsaga negativ qarash [8].

Blau - ko'k rang semali frazeologiyada ham quyidagi iboralarni kuzatish mumkin: ins Blau hinein reden/ handeln – o'ychanni o'yi bitguncha, tavakkalchini ishi bitadi (tavakkalchi); keine blaue Ahnung von etwas haben biror narsa haqida zarracha tasavvurga ega bo'lmaslik (xum kalla); blaue Schlösser bauen – o'zini yettinchi osmonda deb hisoblamok; jemadem blauen Dunst vormachen – oldiga poxol tashlab ketmoq (aldoqchi); blaues Blut haben / blaue Blut in Adern haben – o'zini aslzodalardan hisoblamok (osmondan keldagani) kabi iboralar kuzatiladi.

Shu o'rinda aytish o'rinliki, ba'zi iboralarda sinxronlik va diaxronlik hodisasi ham ko'zga tashlanadi. Masalan, „Blaustrumpf“ (ko'k paypoq) frazeologizmi nemis tiliga ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, XVIII asr o'rtalarida Londondagi adabiy salonlardan biri admiral Boskoven tomonidan "ko'k paypoqlar jamiyati" deb atalgan. Bunga mashhur olim Benjamin Stillingflitning ushbu salonga ko'k paypoqlarda kelgani sabab bo'lgan. Hozirda bu ibora ayollarga nisbatan qo'llanilib, "o'ta ilmga berilib, ammo ayollik latofatini, oilaparvar vazifasini unutgan va yuqori darajada jiddiy ayol"ga nisbatan ishlatiladi [5].

Shuningdek, hozirgi zamonaviy nemis tilida den blauen Montag machen iborasi dushanba kuni yoki bayramlardan keyin, ishdan qochish, progul qilish ma'nosida qo'llaniladi, blau machen iborasi esa uning qisqargan shakli bo'lib, kengroq ma'noga ega: nafaqat dushanba, balki haftaning istalgan kunida biror vaj qidirib, ishga bormaslik chorasini topadigan shaxsga nisbatan qo'llaniladi [1].

Moziylar ta'kidiga ko'ra "moviy dushanba" tarixi o'rta asrlarga borib taqalib, shogirdlarning ish kuni davomiyligi va ularga haftada yakshanbadan tashqari yana bir kun qo'shimcha dam berish, ya'ni "moviy dushanba" kuni masalasi tartibi o'rnatilgan. Der Blaumontag iborasi karnaval (yangi yil bayrami)ning so'nggi kuni bo'lganligi sababli, urfga muvofiq, dam olish kuni sirasiga kiradi. Lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinganda, bu so'z tarkibidagi blau (ko'k) rangining mavjudligi bayramdan keyingi ro'za kunlarida cherkovlar moviy mato bilan bezatilishi bilan izohlanadi. Ba'zi shaxslar uchun ro'za oldidan oxirgi kunni o'ta xursandchilik va ichkilikbozlik bilan o'tkazganlari sababli, blau so'zi "mast, kayfi tarannum" ma'nosini ham anglatib qolgan, Blau sein - mast bo'lmoq; blau sein wie ein Veilchen – "shilta" mast bo'lmoq iboralari ham shular jumlasidandir [6].

Grün-yashil rang nemislar mentalitetida an'anaviy ravishda tinchlik, xotirjamlik, hayot va farovonlik ramzlarini ifodalasa-da, frazeologik-ko'chma ma'noda yashil rang turli salbiy va ijobiylik xislatlarini ham ifodalashga qodir.

Masalan, j-n, etw. über den grünen Klee loben – lagnardonlik qilmoq, ikkiyuzlamachilik qilmoq, osmonu falakka ko'tarib maqtov-madhiya o'qimoq.

Tarixan kuzatilganda, ushbu iboraning kelib chiqishi o'rta asrlar nemis she'riyati va xalq eposidagi yosh sebarga obrazi bilan bog'liq bo'lib, u bahor va tetiklikning oliy namunasi sifatida ulug'langan. Shu sababli "birovni yashil sebargadan ham balandroq maqtov" iborasida bo'rttirish va mubolag'a ohangi mavjud bo'lib, bu frazeologizmning kinoyaviy qabul qilinishiga olib keladi; sich grün machen - o'ziga haddan tashqari ko'p mas'uliyat olmoq (ishga nisbatan mukkasidan ketgan), ein grüner Junge – ona suti og'zidan ketmagan; grün und gelb werden – ichi qoralikdan jizzaki bo'lish [3];

O'zbek tili frazeologizmlarining izohli lug'atida o'zbek tilining tushunchalarni ta'sirchan aks ettirish imkoniyati, olam manzarasini tafakkur va idrok orqali anglash hamda barqaror birikmalar, frazeologizmlarning mental ma'lumotlarni to'plash va ifodalash xususiyatlarini namoyon etadi. Obrazlilik ko'pgina frazeologizmlarning asosiy xususiyatidir. O'zbek tilida obrazlilik, ifodalilik, asosan, epitet, metonimiya, o'xshatish, jonlantirish, qiyoslashlar orqali namoyon bo'ladi. Bunda ikki predmet yoki hodisa ma'lum bir belgi asosida bir-biriga qiyoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgi, xususiyati bo'rttirib ko'rsatilib beriladi [7]. Bu qiyoslash frazeologik butunlikda ko'chma ma'no orqali beriladi.

O'zbek tilida ham rang komponent orqali inson xarakter semali frazeologizmi yuzaga kelishi, o'ziga xos mentalitetga xos diskurs, lingvokognitivlik,

lingvopkulturologik, lingvoprakmatik xusuiyatlari jihatidan muhim ahamiyatga ega.

Masalan, oq: oq bilan qorani ajratmoq: yaxshi bilan yomonni farqiga borolmaydigan tajribasiz shaxs.

Admiral oq-qorani farqiga bormaydigan sxodniyak a'zolarini jazolashga urg'u berar edi (N.Xoshimov);

oq ko'ngil – ko'ngil(i) oq, yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan. O'zbek qishlog'ining sodda hayoti, oq ko'ngil odamlari juda yoqdi. (S.Ahmad).

Oq sifat leksemasi ijobiylik bilan birga salbiy xusuiyatlarni ham ifodalashga moyil. Masalan, oq qilmoq – oqpadar bo'lish, ota yoki ona qarq'ishini olish kabilar.

Ota o'z farzandidan tarbiyani qizg'ana turib, "oq qildim, sendek farzandni oq qildim" deya cheklanadi-yu, go'yoki shu bilan o'zini oqlab olgandek. (T.Malik).

- Qora: qora yurak –g'arazgo'y, buzuq niyatli. Qora yurak dushmanning mash'um changali sevikli do'stimiz, mehribon opamiz, bizning qo'rqmas Jo'raxonimizni oramizdan yulib ketdi. (A.Muxtor);

Qornini yorsa, alif chiqmaydi -g'irt savodsiz bo'lmoq, hech narsa bilmaslik, sinonim sifatida alifni kaltak deyolmaslik.

Ilm osmonining yorug' yulduzlaridan biri sifatida charaqlab turgan mulla G'ulomjonga emas, ichini yorsa alif chiqmaydigan olifta chapaniga o'xshadi-qoldi. (M.Ismoiliy).

Aytish o'rinliki, variantlanish – barcha til birliklariga, shu jumladan, iboralarga ham xos hodisa. Ko'p variantli frazeologizmlarning asosiy qismini ikki va uch variantli iboralar tashkil qiladi. Iboralarda variantlanish boshqa til birliklariga nisbatan kuchli bo'lib, bir iboraning variantlar soni o'ntagacha yetadi, yuqorida qayd etilganlar ham shular jumlasidandir.

- Ko'k: ko'kga ko'tarilib ketgan-dimog'dor, kekkaygan. Bu iboraga tumshug'i osmonda, osmonni ushlab turgandek kabi sinonimik qatorlar ham mavjud.

Yana buni yurak stixiyasi deb ko'klarga ko'tarib maqtasa, bu ko'kka ko'tarilib ketgan yigit ekan-ku. (P. Qodirov).

Tahlil va kuzatuv natijasida oydinlashdiki, o'zbek tilida inson xarakteriga xos semali frazeologizmlarning rang komponentlari bilan mujassamlanishi nemis tiliga qaraganda bir oz passivroq ekanligi kuzatildi.

Biroq inson xarakteriga xos semali frazeologizmlarning zoonim komponentlari bilan mujassamlanishi nemis tiliga qaraganda faol ekanligi "O'zbek tili frazeologik lug'ati"da kuzatildi.

Masalan, Bo'rini yesa ham-yemasa ham og'zi qon – yomon shaxs sifatida gavdalanib qolsa, har qancha o'zini oqlamasin, yomon shaxs sifatida gavdalanib qolaveradi;

ADABIYOTLAR

1. Anna Gondek. Beitrage zur deutschen Phraseologie und Paromiologie aus intra- und interlingualer Sicht. 2018.
2. Bulgakov, V. (2019). Nemis va o'zbek tilidagi idiomalar tarjimasidagi muammolar. Toshkent: Samarqand Publishing.
3. Gritti, A. (2015). Frazeologizm va uning tarjimasini: Nemis idiomalariga oid tadqiqot. Berlin: Springer.
4. Inyaminova Sh.S. Nemis tili frazeologiyasi. Toshkent, Mumtoz so'z, 2011.
5. Khrystyna Dyakiv Beiträge zur deutschen Phraseologie und Parömiologie aus intra- und interlingualer Sicht. Schneider Verlag Hohengehren, 2018.
6. Koller W. Einführung in die Übersetzungswissenschaft. Heidelberg, Quelle&Meyer, 1992.
7. Shavkat Rahmatullayev, Nizomiddin Mahmudov, Zulxumor Xolmanova, Iqbol O'razova, Kamola Rixsiyeva. O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent nashriyoti, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
8. Umarxo'jayev M., Nazarov K. Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at. Toshkent, O'qituvchi, 1994.
9. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке //Москва 1991.

to'ti bo'lma-baliq bo'l – ko'p gapirgan ko'p xato qiladi; xo'roz ham katagida qichqiradi;

quyon yurak, qaysar echki, o'jar eshshak, tovuq miya, ko'r kalamush,

Itning keyingi oyog'i bilish – qoloq, yuksalish jarayonida eng keyinda qolgan;

bo'ri-bo'ri bo'ladi, tulki-tulki bo'ladi – bo'ri obrazi har doim vafodor, mard, sodiq sifatida ijobiy baholangan, tulki esa har doim ayyor, aldoqchi sifatida salbiylik timsolida tasvirlangan;

Ammo aytish joizki, tulki komponentli frazeologizm nemis mentalitetida aqli, aqli odamda ayyorlik, sodda, omi odamda go'llik xususiyati uyg'unlashgani e'tirof etiladi.

It fe'l - xulq-atvori yoqimsiz, sovuq, muomalasi dag'al. Biroq "it" komponentli frazeologizm salbiylik bilan bir qatorda ijobiylik ottenkasini ham beradi.

It vafo -xotin jafu, itdek sodiq shular jumlasidandir.

Qo'y og'zidan cho'p olmagan nihoyat darajada beozor, mo'min.

Garchi qo'y komponentli frazeologizm ijobiylikni ifodalasa-da, yuqorida qayd etilgani kabi, salbiylik ifodalanish xusuiyati ham xalq og'zaki ijodi va badiiy adabiyotlarda ko'zga tashlanadi: qo'y - qo'ydek ergashib ketavermoq – mustaqil fikr yuritmasdan kimningdir ortidan to'g'rimi-noto'g'rimi ergashib ketaverish ma'nosida.

Shuningdek, "itning iti" frazeologizmi salbiy baho va haqoratni ifodalash uchun, "qo'y og'zidan cho'p olmagan" frazeologizmi esa ijobiy munosabat va maqto'vni bildirish uchun ishlatiladi.

Xulosa va takliflar. Misollar asosida kuzatilgan natijalar asosi shun dalilladiki, salbiy ma'nodagi frazeologizmlar ijobiy ma'nodagilarga qaraganda ko'proq ekanligi asoslandi, O'zbek tili frazeologik lug'atlarida oq, qora, qizil, sariq ranglar dominant hisoblanadi. Nemis tili frazeologiyasida esa schwarz, weis, blau, grün, gelb, rosig ranglari yetakchi o'rin egallaydi. Nemis frazeologiyasi uchun schwarz (qora) va blau (ko'k) ranglariga salbiy baho berilishi oq rang (weiß) esa qutbli (ham ijobiy, ham salbiy) xarakterga ega ekanligi asoslandi. Shuningdek, o'zbek tiliga nisbatan nemis tilida rang komponent bilan inson xarakteriga xos semali frazeologizmlar uyg'unlashuvi faol ekanligi kuzatildi.

Tahlil qilingan rang komponentiga xos inson xarakteriga xos semali frazeologik birliklarni kontekstual va lingvokognitiv jihatdan tahlil qilishga qaratilgan mazkur ishda, ularning pragmatik vazifalarini hamda kognitiv asoslarini yoritishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari frazeologiya sohasidagi mavjud bilimlarni boyitadi va frazeologizmlarning nutqiy qo'llanishiga oid yangi ma'lumotlar beradi.